

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KENESININ
QARARI**

2023 - yil 21 - oktabr

360-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 13 oktyabrdagi
“O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi
akademiyasida malaka oshiradigan boshqaruv kadrlarining lavozimlari
tarkibini tasdiqlash to'g'risida”gi 537-sonli qarori haqida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasining hududiy filiallarini tashkil etish to'g'risida” 2018 yil 6 avgustdagi PQ-3901-son qarori hamda Hukumatning “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasining hududiy filiallari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida” 2018 yil 28 sentyabrdagi 772-son qaroriga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi **qaror qiladi:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 13 oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida malaka oshiradigan boshqaruv kadrlarining lavozimlari tarkibini tasdiqlash to'g'risida”gi 537-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

a) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi (keyingi o'rinlarda – Akademiya) tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi (keyingi o'rinlarda – Agentlik) bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi va uning hududiy filiallarida 2023/2024 o'quv yilida davlat granti asosida malaka oshirish kurslariga yuboriladigan boshqaruv kadrlarining lavozimlari tarkibi **ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;**

b) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, tegishli vazirliklar, agentlik, shahar va tumanlar hokimliklari bilan birgalikda Akademiya va uning hududiy filiallarida mazkur qaror ilovasiga muvofiq tasdiqlangan tarkibda boshqaruv kadrlarining malaka oshirish kurslarida

ishtirokini ta'minlash topshirilganligi;

c) Akademiyaga Agentlik va tegishli vazirlar bilan birgalikda **2023 yil oktyabr – 2024 yil iyun oylarida** mazkur qaror ilovasiga muvofiq boshqaruv kadrlari uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etish topshirilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi va uning hududiy filiallarida 2023/2024 o'quv yilida davlat granti asosida malaka oshirish kurslariga yuboriladigan boshqaruv kadrlarining lavozimlari tarkibi **ilovaga muvofiq** tasdiqlansin.

4. Vazirlik va idoralar rahbarlari, shahar va tumanlar hokimlari mazkur qaror ilovasida ko'rsatilgan boshqaruv kadrlarining lavozimlari tarkibiga muvofiq, mas'ul xodimlarning malaka oshirish kurslariga yuborilishini ta'minlasin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari N.U.Yerlepsov zimmasiga yuklansin.

**Qoraqalpog'iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**



F. Ermanov

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashining
2023-yil 21-oktabrdagi
360-13-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Davlat boshqaruvi
akademiyasi va uning xududiy filiallarida 2023/2024 o'quv yilida davlat granti
asosida malaka oshirish kurslariga yuboriladigan boshqaruv kadrlarining
lavozimlari
TARKIBI**

T/p	Boshqaruv kadrlarining lavozimlari
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining bo'lim boshliqlari, tuman (shahar) bo'limlari boshliqlari
2.	Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining bo'lim boshliqlari, tuman (shahar) bo'limlari boshliqlari
3.	Qoraqalpog'iston Respublikasi Transport vazirligining bo'lim boshliqlari
4.	Qoraqalpog'iston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining bo'lim boshliqlari, tuman (shahar) bo'limlari boshliqlari
5.	Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining boshqarmasi va bo'lim boshliqlari
6.	Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining bo'lim boshliqlari, tuman (shahar) bo'limlari boshliqlari
7.	Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining bo'lim boshliqlari, tuman (shahar) bo'limlari boshliqlari
8.	Qoraqalpog'iston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining bo'lim boshliqlari, tuman (shahar) bo'limlari boshliqlari
9.	Qoraqalpog'iston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining bo'lim boshliqlari, tuman (shahar) investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limlari boshliqlari
10.	Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligining bo'lim boshliqlari, tuman (shahar) bo'limlari boshliqlari
11.	Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat vazirligining bo'lim boshliqlari, tuman (shahar) bo'limlari boshliqlari
12.	Qoraqalpog'iston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligining bo'lim boshliqlari, tuman (shahar) bo'limlari boshliqlari
13.	Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining bo'lim boshliqlari, tuman (shahar) bo'limlari boshliqlari

- | | |
|-----|---|
| 14. | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligining bo‘lim boshliqlari, tuman (shahar) bo‘limlari boshliqlari |
|-----|---|